

O‘SMIRLAR SUITSIDAL XULQ-ATVORIDA YOLG‘IZLIK HISSI MASALALARI

Qarshiboeva Gulnoza Abduqodirovna, psixol.f.f.d.
Jizzax davlat pedagogika universiteti

gulinoza.ru@bk.ru

Annotatsiya: Maqolada o‘smirlar suitsidal xulq-atvorida yolg‘izlik hissi masalalari haqida so‘z yuritilib, unda nazariyalar va yondoshuvlarda yolg‘izlik hissining odamni boshqalar tomonidan tushunmaslik, yaqinlik va hissiy ehtiyojlarning qondirilmasligi oqibatida hissiy kechinmalarni yuzaga chiqishi sifatida ta’rifi yoritilgan.

Kalit so‘zlari: nazariya, yondoshuvlar, yolg‘izlik hissi, tushunmaslik, yaqinlik, hissiy, ehtiyoj, kechinma, shaxs, xislat, tafovut.

Ko‘pgina psixologlar yolg‘izlik hissini shaxs xislatidagi salbiy hodisa sifatida ta’riflasalar, ba’zilari esa yolg‘izlik hissini shaxsni himoyalash vositasi deb baho beradilar. Fanda yolg‘izlik hissi to‘g‘risidagi bir qancha nazariyalarda ko‘proq yolg‘izlikka salbiy munosabat bildiradilar. Masalan, yolg‘izlikning psixodinamik modelida olimlar yolg‘izlikning patologik holat sifatida qarasarlar, fenomenologik model vakili K.Rodgers esa yolg‘izlikda shaxs va uning “men” i o‘rtasida tafovut paydo bo‘lishini, bu esa shaxs o‘z qobig‘iga o‘ralashib qolib, ijtimoiy faolligini yo‘qotadi, degan fikrni bildiradi. Ammo, ekzistensial model vakili bo‘lgan K.Mustakas yolg‘izlikning ijobiy tomonlari mavjudligini e’tirof etadi va inson yolg‘izligi uning tabiati bilan bog‘liq degan fikrni bildiradi.

Psixologiya fanida yolg‘izlik muammosi borasida turli nazariyalar, yondoshuvlar mavjud bo‘lib, psixolog olimlar o‘z fikr -mulohazalarini bildirganlar. Bu nazariyalar va yondoshuvlarda yolg‘izlik hissining odamni boshqalar tomonidan tushunmaslik, yaqinlik va hissiy ehtiyojlarning qondirilmasligi oqibatida hissiy kechinmalarni yuzaga chiqishi sifatida ta’riflanadi.

Yolg‘izlik hissi har qanday holatda ham inson xarakteriga, xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatadi, ruhan tushkunlikka tushishiga, hayotga qiziqishi so‘nishiga sabab bo‘lishi, o‘zini keraksiz insondek his qilishiga olib kelishi mumkin.

Biz tadqiqotimizda o‘smirlarning suitsidal xulq-atvorida yolg‘izlik hissining ta’sirini o‘rganishga harakat qildik.

Tadqiqotimiz jarayonida o‘smirlarning yolg‘izlik hissini o‘rganish uchun D.Rassel va M.Fergussonlar tomonidan ishlab chiqilgan ishlab chiqilgan “Yolg‘izlikni sub’ektiv his qilish darajasi diagnostikasi” metodikasidan foydalandik. Uning natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Respondentlar	X	b	T
O‘smirlar	26,15	11,40	0,940***
Ota-onalar	26,90	11,70	

Izoh:*** $r \leq 0,001$

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida aytish joizki, o‘smirlarda yolg‘izlikni his qilish darajasi o‘rtacha ko‘rsatkichga egaligi aniqlandi, ularning ota-onalarining ko‘rsatkichlari ham o‘rtacha darajali natijani ko‘rsatdi. O‘smirlar va ota-onalarning ko‘rsatkichlari orasida musbat bog‘liqlik aniqlandi.

Tadqiqotimizda olingan natijalar o‘smirlarning yolg‘izlikni his qilishi ulardagi “menga muloqot yetishmaydi”, “atrofimdagilar meni qiziqishlarim va fikrlarimga e‘tiborsiz”, “hech kim meni yetarlicha bilmaydi”, “men baxtsizman, xuddi xo‘rlangandek”, “men o‘zimni yakkalanib qolgandek his qilaman”, “atrofimda odamlar bor, lekin ular men bilan emas” kabi fikrlarda namoyon bo‘lar ekan. O‘smirlar bilan o‘tkazilgan suhbat natijalari ham mazkur holatni yuzaga chiqardi. O‘smirlarning ota-onalarida ham nisbatan shunga yaqin munosabatni ko‘rish mumkin.

Shu bilan birga, aytish joizki, yolg‘izlikning o‘ziga xos ijobiy jihati ham borki, ular inson yolg‘iz qolganda o‘z-o‘zi bilan suhbat qurib, o‘ziga baho berishi, shu asosda o‘zining ichki dunyosiga nazar solishi, o‘z dunyoqarashini, o‘ziga yaqin insonlar bilan munosabatlarini tahlil qilishlariga imkoniyat yaratiladi. Buni biz o‘smirlar bilan o‘tkazgan suhbatimiz jarayonida aniqlab oldik.

Lekin o‘smirlardagi yolg‘izlik hissini yuzaga chiqishi sabablarini oldi olinmasa, ularga yetarlicha e‘tibor berilmasa, ularda xulq-atvorni buzilishi, o‘zaro munosabatlarni yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Tadqiqotimizda olingan natijalar asosida o‘smirlar va ota-onalarning yolg‘izlikni sub‘ektiv his qilish darajasini diagnostikasi bo‘yicha yolg‘izlikni darajalariga ko‘ra hududiy ko‘rsatkichlarining o‘zaro bog‘liqlik holatini ham tahlil qildik. Uning natijalari quyidagi 2 - jadvalda o‘z aksini topgan.

2-jadval

O‘smirlar va ota-onalarning “Yolg‘izlikni sub‘ektiv xis qilish darajasi diagnostikasi” bo‘yicha darajalariga ko‘ra hududiy ko‘rsatkichlari

O‘smirlar					Ota-onalar				
Tumanlar va darajalar	X	σ	T		Tumanlar va darajalar	X	σ	T	
Paxtakor	Quy	15,96	2,67	-10,288***	Paxtakor	Quy	17,40	1,22	-9,483***
	O‘rta	22,20	1,71			O‘rta	22,22	1,90	
	Quy	15,96	2,67	-46,259***		Quy	17,40	1,22	-79,282***
	Yuqori	40,53	,68			Yuqori	42,22	1,23	
	O‘rta	22,20	1,710			O‘rta	22,22	1,90	
	Yuqori	40,53	,68			Yuqori	42,22	1,23	
Jizzax	Quy	14,26	2,49	-13,315***	Jizzax	Quy	14,81	2,10	-14,341***
	O‘rta	20,80	1,15			O‘rta	22,22	1,63	
	Quy	14,26	2,49	-55,359***		Quy	14,81	2,10	-50,275***
	Yuqori	40,50	,82			Yuqori	42,22	1,50	
	O‘rta	20,80	1,15			O‘rta	22,22	1,63	
	Yuqori	40,50	,82			Yuqori	42,22	1,50	
G‘allaorol	Quy	14,06	2,17	-15,301***	G‘allaorol	Quy	16,50	1,81	-9,118***
	O‘rta	22,00	1,43			O‘rta	21,63	1,52	
	Quy	14,06	2,18	49,050***		Quy	16,50	1,81	-48,670***
	Yuqori	41,03	1,79			Yuqori	44,00	2,18	
	O‘rta	22,00	1,43			O‘rta	21,63	1,52	
	Yuqori	41,03	1,79			Yuqori	44,00	2,18	
Baxmal	Quy	15,90	1,74	-12,450***	Baxmal	Quy	15,22	2,04	-11,403***
	O‘rta	21,70	1,78			O‘rta	21,31	1,17	

	Quyi	15,90	1,74	-68,134***		Quyi	15,22	2,04	-46,921***
	Yuqori	45,00	1,94			Yuqori	43,00	1,54	
	O'rta	21,70	1,78	-49,052***		O'rta	21,31	1,17	-55,397***
	Yuqori	45,00	1,94			Yuqori	43,00	1,54	

Izoh: * $r \leq 0,05$; ** $r \leq 0,01$; *** $r \leq 0,001$

Izoh: *** $r \leq 0,001$

O'tkazilgan tadqiqot natijalarida respondentlarning yolg'izlikni sub'ektiv his qilish darajasining umumlashgan holati o'rtacha ko'rsatkichga ega bo'lsada (2-jadval), ushbu natijalarni hududiy ko'rsatkichlarini uchta daraja bo'yicha (quyi, o'rtacha, yuqori) tahlili quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi (2-jadval).

O'smirlarning yolg'izlikni sub'ektiv his qilish darajasi bo'yicha tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, Paxtakor tumanida o'smirlarning quyi va o'rta darajalari (15,96; 22,20; $t = -10,288$; $r \leq 0,001$), quyi va yuqori darajalari (15,96; 40,53; $t = -46,259$; $r \leq 0,001$), o'rta va yuqori darajalari (22,20; 40,53; $t = -49,277$; $r \leq 0,001$) o'rtasida manfiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatmoqda. Jizzax tumani o'smirlarining bu boradagi ko'rsatkichlari ham ijobiy natijadan biroz chetlanganligini ko'rish mumkin (quyi -14,26; o'rtacha -20,80; $t = -13,315$; $r \leq 0,001$; quyi -14,24; yuqori -40,50; $t = -55,359$; $r \leq 0,001$; o'rta -20,80; yuqori -40,50; $t = -76,1018$; $r \leq 0,001$). Jizzax tumani o'smirlarining har uchala darajalarining o'zaro natijalari o'rtasida manfiy bog'liqlik mavjud. G'allaorol tumani o'smirlarining ko'rsatkichlari darajalar bo'yicha quyi va o'rta (14,06; 22,00; $t = -15,301$; $r \leq 0,001$), quyi va yuqori (14,06; 41,03; $t = 49,050$; $r \leq 0,001$), o'rta va yuqori (22,00; 41,03; $t = 44,527$; $r \leq 0,001$) natijalarni ko'rsatdi. G'allaorol tumani o'smirlarining quyi va o'rtacha darajalari ko'rsatkichlari o'rtasida manfiy bog'liqlik kuzatildi, quyi va yuqori, o'rta va yuqori darajalari o'rtasidagi natijalar musbat bog'liqlikda namoyon bo'lmoqda. Baxmal tumani o'smirlarining quyi, o'rtacha va yuqori darajalarining natijalari nisbatan taqqoslanganda, ular o'rtasidagi manfiy bog'lanish mavjudligi ko'rindi (2 - jadvalga qarang).

Mazkur tumanlarning yolg'izlikni sub'ektiv his qilish darajalari ko'rsatkichlarining natijalari bo'yicha quyidagi fikr mulohaza bildirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. O'smirlarning yolg'izlikni sub'ektiv his qilishning darajalari o'smirlarning oilaviy muhiti va oiladagi o'zaro munosabatlarga, ta'lim muassasadagi o'qituvchi-o'quvchi o'rtasidagi munosabatga asosan quyi darajadan o'rtacha, o'rta darajadan yuqori darajaga qarab o'zgarishi mumkin ekan. Bu holatni o'smirlardagi sub'ektiv his qilish darajalarining foiz ko'rsatkichlari ham namoyon bo'lmoqda (quyi -24,5%; o'rtacha -57,0%; yuqori -18,5%). Buni o'tkazilgan tadqiqot natijalari va ular o'rtasidagi manfiy bog'liqlik ham ko'rsatib turibdi, shu bilan birgalikda o'smirlik davrining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari ham ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan holi emas.

Demak, bunday vaziyatda o'smirlar bilan psixokorreksion tadbirlar o'tkazish, ularda suitsidal xulq atvor xislatlarini yuzaga chiqishini oldini olish choralarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu bilan birga, o'smirlarning ota-onalari bilan o'tkazilgan tadqiqot natijalarining xududiy ko'rsatkichlari tahlili ham darajalar o'rtasida manfiy bog'liqlikni ko'rsatib turibdi (2 - jadvalga qarang). Bu natijalar shundan dalolat beradiki, darajalar o'rtasidagi ko'rsatkichlar o'zaro bir-biriga ta'sir ko'rsatishi,

ayniqsa o'rtacha ko'rsatkich darajasi yuqori darajaga o'zgarish ehtimoli mavjudligini ko'rsatmoqda. Ota-onalarning yolg'izlikni sub'ektiv his qilish darajasining foiz ko'rsatkichlari (quyi -25,4%; o'rtacha – 55%; yuqori -19,6%). Bu holatni ota-ona va o'smir o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bilan, ota-onalarning farzandlariga nisbatan biroz e'tiborsizligi, farzandlarining qiziqishi, orzu-havaslarini, xarakterini bilmasliklari hamda bolalar psixologiyasidan bilimlari yetarli emasligi bilan izohlash mumkin.

O'smirlar va ota-onalarning yolg'izlikni sub'ektiv his qilish darajasi ko'rsatkichlarining umumiy qiyosiy tahlili natijasi asosan aytish mumkinki, ular o'rtasida umumiy bog'liqlik mavjud bo'lib, buni biz "Meni xuddi hech kim tushunmayotgandek his qilaman", "Murojaat qilishim mumkin bo'lgan odam yo'qdek", "Men o'z tashvishlarimdan qutulib, atrofdagilar bilan samimiy muloqotda bo'la olmayman", "Men o'zimni juda yolg'iz his qilaman", "Mening ijtimoiy ahvolim va aloqalarim yuzakidek tuyuladi" kabi fikrlar ustunlik qilish mumkin. Bizni nazarimizda, yuqorida keltirilgan fikrlar o'smirlarning ongini chalg'itib, ularda o'zini keraksiz odamday his qilish, o'ziga bo'lgan ishonchsizlik, o'zini hurmat qilish, o'zini yaxshi ko'rish kabi xislatlarni yuzaga chiqarishiga, to'sqinlik qilishi, buni oqibatida o'smirlarda o'zini ko'pchilikdan olib qochish, tortinchoqlik, qo'pollik, boshqalarga dushmanlik ko'zi bilan qarash, o'zaro munosabatda nizolarga berilish kabi hissiyotlar ularda suitsidal xulq atvorni shakllanishiga sabab bo'lishi mumkinligi anglatadi.

Aytish joizki, insonlarda yolg'izlik hissining chuqur ildiz olishiga hamda hissiy aloqalarning buzilishiga yo'l qo'ymaslik muhim ahamiyatga ega, chunki bu holat insonda asta-sekin xulq-atvorini buzilishiga va shaxslararo munosabatlarni o'rnatishning yomonlashishiga olib kelish ehtimoli yuqori bo'ladi. Agar o'smirlar katta yoshdagilarning (ota-onasi, aka va opalari, o'qituvchilari) qo'llab-quvvatlashi va uni tushunishlarini his qilmasa, uning xulq-atvorida salbiy xislatlar shakllanishi va o'smir o'zini salbiy jihatdan ko'rsatishga harakat qiladi (shantaj, tajovuz, qo'rqitish va boshqalar).

Adabiyotlar ro'yxati

1. Амбрумова А. Г., Бородин С. В., Михлин А. С. Предупреждение самоубийств. — М., 1980. -105 с.
2. Амбрумова А. Г. Роль личности в проблеме суицида. Тр. Моск. НИИ психиатрии МЗ РСФСР. - М., 1981. -89 с.
3. Гилинский Я. И. Самоубийство как социальное явление. Проблемы борьбы с девиантным поведением. — М., 1989. -114с.
4. Дюркгейм Э. Самоубийство. // СПб.: «Союз», 1998.-496 с.
5. Ефремов В.С. Основы суицидологии. —СПб., 2004.-479 с
6. Конангук Н. В. О психологическом смысле суицидов// Психологический журнал. - 1989. - Т. 10. - № 5
7. Qarshiboyeva G.Ozligingni angla. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-52.
8. Каршибаева Г.А., & Эшмуратов, О.Э. (2018). Факторы суицидального поведения, влияющие на формирование подросткового поведения. Молодой ученый, (49), 235-237.

9. Qarshiboyeva G. Психологик маслаҳат. Архив Научных Публикаций JSPI.
10. Каршибаева Г. А. Особенности суицидального поведения в подростковом возрасте. Молодой ученый, (7), 663-665.
11. Каршибаева Г.А. Психопрофилактические меры по предотвращению самоубийств у подростков. Молодой ученый, (49), 233-235.
12. Каршибаева Г.А. Теоретическая основа проблемы психологических особенностей подростков с суицидальным поведением. Молодой ученый, (49), 230-233.
13. Каршибаева Г.А., Норбекова, Б.Ш., & Туракулов, Л.Т. Суицид-это не просто способ обратить на себя внимание. European journal of education and applied psychology, (2).
14. Каршибаева Г.А. Самоубийство в ряду других социальных явлений. Молодой ученый, (5), 581-584.
15. Karshiboeva, G. (2020). Характеристики мотивационных потребностей подростков с суицидальным поведением. *EurasianUnionScientists*, 1(10 (79)), 48-49.
16. Qarshiboyeva, G. (2021). The importance of motivation to avoid failure in achieving the success of young football players. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
17. Karshibayeva, G. (2021). Диагностика суицидального поведения у подростков. *Вестник интегративной психологии*, (22), 84-89.
18. Абдурасулов, Р. А., & Каршибоева, Г. А. Психологик тренинг асослари. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент–2019 йил.
19. Шоумаров Ғ.Б., Соғинов Н.А., Қодиров У.Д., Палуанова З.Д. Суицид ҳолатларини тадқиқ этиш: муаммо ва ечимлар. Услубий қўлланма. (Суицидал хулқнинг олдини олиш бўйича ишловчи ишчи гуруҳ аъзолари учун). // Масъул муҳаррир. -Т., 2020. -138 б.
20. Фаринович В.В. Психологические аспекты суицида и возможности их интерпретации. // Современная зарубежная психология. 2013. №3. 122-126 с.